

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> О'ЗБЕКИСТОНДА О'ZINI О'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING АНОЛИНИ ИЖТИМОИЙ НИМОYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING АНАМИYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quratboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Hodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliyev Sobir Tursunboevich</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Хаййева Ирода Адамбаевна

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIIY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ТАРАҚҚИЙОТИДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНСИЯ
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Niyozova Shohista Nusratilloevna
Buxoro innovatsiyalar universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi ta'lim yo'nalishi
1-bosqich magistranti

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila, oila va nikoh munosabatlari, oiladagi ijtimoiy muhit, tarbiya va uning xususiyatlari to'g'risida so'z boradi. Oilaviy tarbiya masala hozirgi davrning muhim muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Oilaviy munosabatlar keng qamrovli bo'lib, nafaqat huquqiy normalar, balki odob-axloq qoidalari va urf-odatlar bilan ham tartibga solinadi. Bundan kelib chiqqan holda, nikoh tuzilishining huquqiy asoslarigina emas, balki uning pedagogik jihatlari ham oila mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, tarbiya, qadriyat, ijtimoiy institut, oilaviy tarbiya.

Kurbanova Olmasoy Usmonovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
associate professor

Niyozova Shahista Nusratilloevna
Bukhara Innovation University
Pedagogical theory and history of education
1st stage graduate student

PEDAGOGICAL FACTORS OF FAMILY STABILITY FORMATION

Abstract. This article talks about the family, family and marital relations, social environment in the family, education and its characteristics. The issue of family upbringing is considered one of the important problems of the present time. Family relations are comprehensive and are regulated not only by legal norms, but also by rules of etiquette and customs. Based on this, not only the legal basis of the structure of marriage, but also its pedagogical aspects serve to ensure the stability of the family.

Key words: family, society, education, value, social institution, family education.

Курбанова Улмасой Усмоновна
Доктор философии (PhD) педагогических наук, Доцент

Ниязова Шахиста Нусратиллоевна
Бухарский инновационный университет
Педагогическая теория и история образования
магистрант 1 курса

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ СЕМЬИ

Аннотация. В данной статье говорится о семье, семейно-брачных отношениях, социальной среде в семье, образовании и ее характеристиках. Вопрос семейного воспитания считается одной из важных проблем современности. Семейные отношения всеобъемлющи и регулируются не только правовыми нормами, но и правилами этикета и обычаями. Исходя из этого, обеспечению стабильности семьи служат не только правовая основа устройства брака, но и его педагогические аспекты.

Ключевые слова: семья, общество, образование, ценности, социальный институт, семейное воспитание.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N55.1>

Kirish. Jamiyatimizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama etuk, sog'lom va barkamol insonlar qilib voyaga etkazish, shuningdek, mamlakatimizda oilani, jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalarida sodir bo'layotgan ma'naviy o'zgarishlarga hamohang tarzda rivojlantirish, uning ta'sirini yanada kuchaytirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida e'tibor qaratiladi. Oila nima? Bu so'z qanday lug'aviy manolarga ega? Asli qaysi tilga mansub? Oila so'zi aslida arabcha so'z bo'lib, "ayolmand, niyozmand", "er-xotin, ularning bola-chaqalar va eng yaqin tug'ishganlardan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon" degan ma'noni anglatadi. Oila inson ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargoh. Shu muqaddas dargohda ma'naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O'zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir. "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!", - deya ta'kidlagan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [4;5].

Asosiy qism. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quv jarayonida o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g'oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlari amalga oshirilmogda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" [2] kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yurtimizda yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ularni har tomonlama tarbiyalashimiz zarur.

Ta'kidlash joizki, oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi roli benazir. Shu sababli oila, ta'lim muassasasi hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'alarining, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularni tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatparvarlik an'alarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarini zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan farzandlarimizda

mustahkam e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarni ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardan sanaladi.

I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiylikni, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor" [3]. Bugungi kunda oila singari ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy qarashlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Shu ma'noda O'zbekiston konstitusiyasida oila masalasi 76-moddaning amaldagi tahriri bunday: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi" [1].

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini" – degan jumlada tabiiy ravishda naslimiz davomiyligini saqlaydigan maskan ekanligi va unda "O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga" asoslanishi aynan tabiat va jamiyatdagi parite qonuniniyatiga asosan ikki qarama-qarshi jins vakillari orasida bu kelishuvning bo'lishi alohida ta'kidlangani ayni muddaodir. Chunki bugungi kunda g'arb madaniyatining jirkanch ko'rinishi bo'lgan bir jinsli nikohning oldini olishga qaratilgan g'oya aks etganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuningdek oila to'laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlarning yaratilishi – insonparvarlikning sharqona ko'rinishi bo'lib, mamlakatimizda yosh oilalar uchun bugungi kunda yaratilayotgan sharoitlar, imtiyozlar – oilalar mustahkamligini saqlash yo'lidagi ezgu qadamdir. Ushbu bobning "ko'p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar" belgilanganligi esa o'zbek xalqining bolaparvarlik fazilatini rag'batlantirishning gumanistik tamoyili deb baholash mumkin.

Muqaddas Qomusning 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" [1] sifatida keltirilib, bunda bevosita ota-onalar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga ham yuklatilmoqda. Bu vazifalar qatoriga bolalarni voyaga etgunga qadar boqish va tarbiyalashdan tashqari, ularning ta'limi, sog'lom va to'laqonli kamol topishi haqida qayg'urish ham qo'shilmoqda.

Ushbu modda asosida O'zbekistonda bugungi kunda ota-onadan bevaqt judo bo'lgan yoki qarovsiz qolgan bolalar vasiylik asosida yaqinlariga berilishining qonuniy asoslari belgilangan.

Shuningdek, 78-moddada "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" keltirilib, bolaning manfaatlarini,

bolalarning to'laqonli, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlanadi. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinib, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Aynan ushbu moddada bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning muqaddas hadisi shariflarida ifodalangan ota-onaning farzand oldidagi burchlari, farzandlarning mas'uliyatlari hayotbaxsh tamoyillar asosida aks etgan.

Sharqda azal-azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan, farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Oilada bo'lajak farzandni tarbiyalash bola ona qornidayoq boshlash ta'kidlanadi. Ammo, inson zoti yaratilibdiki, hayotda xatolar qiladi, adashadi, kechiradi, kechiriladi, shunday xatolar borki, ularni kechirish mumkin emas, chunki, bu nafaqat bir kishiga, bir oilaga, balki butun bir jamiyatga ziyon yetkazadi, bu bizning farzandlarimiz tarbiyasiga mas'uliyatsiz oqibatida yuzaga keladi. Darhaqiqat, oilaviy tarbiyada ota-ona zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanganki, bu mas'uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. Oila vatan ichra vatandurki, unda yaxshi tarbiya ko'rgan farzandgina haqiqiy inson bo'lib yetishadi.

Oila – bu muqaddas qo'rg'on, aziz dargoh, ma'naviyat sarchashmasi, kelajak poydevori. Darhaqiqat, bu ko'k gumbaz ostida hayot charxpalagi tinmay aylanaveradi, har kun qadamlarimiz vajohatini his etgan bu qo'hna zamin ne-ne jang-u jadallarga, tarix sahifalariga muhrlangan ne-ne buyuk voqeliklarga guvoh, bu muqaddas ona zamin qanchadan qancha shoir-u olimlarga shoh-u gadolarga abadiy maskan bo'ldi, ne-ne shoh asarlar yaratildi va abadiyatga daxldor bo'ldi. Buyuk yevropalik olim Artur Paup aytganidek, "Yevropa hamon uyquda chog'ida Sharq mutafakkirlari olamning yarmini ilmu urfon nuri ila yoritgan edi". Navoiy asarlarida ma'naviyatli, ma'rifatli komil insonni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan, zero ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, iymon-e'tiqodin butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuchdir. Ma'naviyat zamirida esa mustahkam oila qo'rg'oni bunyod etiladi. Hazrat Navoiy talqinida oila - ma'naviyat o'chog'i, ota-ona esa mehr nuri ila qizdirguvchi mash'aldir.

Darvoqe, har bir go'dak ko'z ochib dunyo yuzini ko'rarkan, u eng avvalo, oila atalmish muqaddas dargoh bag'rida, ota hamda ona singari mo'tabar zotlar qo'lida kamol topadi. Oila posbonlari sanalmish ota-ona dilbandi, jigargo'shasi uchun jonini berishga tayyor turadi, ona allasi, ota mehri orqali murg'ak qalb sohibi oilasiga, qadrdon aka-ukalariga, vataniga muhabbat tuygusini o'z qalbida, mitti vujudida his eta boshlaydi. Shuning uchun bir parcha etni voyaga etkazib, kamol toptirishda, bir kasb sohibi bo'lib yurtiga, xalqiga xizmat qilishida ota-onaning, ustozning mehnati beqiyos. Alisher Navoiy "Hayratul abror" dostonida ota-onani hurmat qilish, ular xizmatida bo'lishni sharaf deb biladi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a,
Tun-kuningga aylagali nurposh
Birisin oy angla, birisin quyosh [5].

Darhaqiqat, oila posbonlari bo'lmish ota-onalarni oy-u quyosh kabi qadrlash, ular uchun zarur bo'lsa aziz jonni fido qilish farzandlar uchun ham qarz, ham farzdir. Shoir nazdida oilada farzand hamisha ota-onaga nisbatan qarzdorlik hissini tuyib yashamog'i darkor, zero butun

koinot uzra oy qorong‘u kechaga nur berib osmon-u falakni yoritganidek, onalar tuni bilan bedor bo‘lib oq sut beradi, ko‘z nurini, qalb qo‘rini berib katta qiladi, quyosh taftidan butun borliq zavq olganidek, otalar xizmatidan farzandlar voyaga yetib oila qo‘rg‘onining suyanchig‘iga aylanadi.

Alisher Navoiy yuksak axloq-odobni, insoniy fazilatlarni oila poydevorini yaratishda, bolani tarbiyalashda eng birinchi omil, deb hisoblaydi hamda “Mahbubul qulub“ asarida “Go‘zal axloq, inson vujudining xushmanzara bog‘idir, va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Odob axloqni insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa bo‘ladi. Go‘zal axloq tufayli kattalar hurmatiga sazovor bo‘ladi va kattalardan kichiklarga iltifot, marhamat etishadi” [6].

Oila suyanchig‘i, nasllar davomchisi farzandlardir. Muborak hadisi sharifda bu hayotiy haqiqat go‘zal tarzda ifodalangan, “hech bir ota – ona o‘z farzandiga go‘zal axloqu tarbiyadan boshqa buyuk me‘ros qoldira olmaydi”. Tarbiya bermoq uchun, avvalo, tarbiyachining o‘zida ham jamiki insoniy fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Avvalo, muomala madaniyati, so‘zlash odobini ularga o‘rgatish, yoshligidanoq rostgo‘ylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash darkor.

Xulosa. Oila jamiyatning eng mustahkam poydevoridir. Zero uning bag‘rida eng ezgu qadriyatlar ulug‘lanadi, milliy an‘analar avloddan-avlodga vorisiylik asosida yetib keladi. Har bir oila a‘zosi esa, u kamol topgan muhit qadriyat va an‘analarini aks ettiradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so‘zi, 1997 yil 5 dekabr.
4. Qurbonova O‘.U., D.I.Tosheva. Oila pedagogikasi. Darslik. Buxoro. “Durdona” nashriyoti. 2023. 214 b.
5. [https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20\(nazm\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf).
6. <https://e-library.sammu.uz/uploads/books/Badiiy%20adabiyotlar/Mahbub%20ul-qulub.pdf>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).